

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ISLON KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Geologiya-qidiruv va kon metallurgiya fakulteti  
“Marksheyderlik loyihasi va geodeziya” kafedراسi

# KARTASHUNOSLIK

fanidan kurs loyiha (ishi) bajarish bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMA



Toshkent 2022

**Tuzuvchilar:** Raximov Sh.Sh., Nizomova R.R. «Kartashunoslik» fanidan Kurs loyihasi(ishi)ni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. – Toshkent, ToshDTU, 2022. 24 bet.

Ushbu amaliy ishlari to'plamida "Kartashunoslik" fanining dasturi asosida ishlab chiqilgan kurs ishlarini bajarish tartibi keltirilgan.

Har bir amaliy ishda bajarish tartibi va nazariy ma'lumotlar keltirilgan, amaliy ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'rsatmalar hamda adabiyotlarning ro'yxati berilgan.

Ko'rsatmadan maqsad nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash ishlari ko'zda tutilgan. Har bir parametrlar bo'yicha misollar keltirilgan bo'lib, talabalarning bilimlarini mustahkamlashda ma'lum bir ko'nikmalar hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kursloyihasiyozish bo'yicha uslubiy qo'llanma oliy ta'lim bakalavriat bosqichining 60722500 – "Geodeziya kartografiya va kadastr" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallab tuzilgan.

I.Karimov nomidagi ToshDTU ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi.

**Taqrizchilar:** Gulyamova L.X.- UzMU professori

Azimov B.G.- "Marksheyderlikloyihasi va geodeziya" kafedrasida dotsenti.

Mundarija.....	3
Kirish.....	4
1. Kurs loyihasimavzusini tanlash qoidalari.....	5
2. Ishning rejasini tuzish va bajariladigan ishlarni nazorat qilish.....	5
3. Ilmiy rahbarning vazifalari.....	6
4. Adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish va ular bilan tanishish.....	6
5. Kurs loyihasi(ishi)ni yozish tartibi va uni rasmiylashtirish talablari.....	7
6. Kurs loyihasi(ishi)ni himoya qilish qoidalari.....	10
Ilovalar.....	13

## KIRISH

“Kurs loyihasi (ishi) keyingi yoziladigan ilmiy va amaliy ishlarning debochasi bo‘lib, muallif tomonidan chuqur o‘rganib va tahlil qilingan biror mavzu yuzasidan berilgan xulosa va natijalariga asoslangan - kichik tadqiqotdir”.

**Kurs loyihasi(ishi)** - tanlangan mavzu bo‘yicha o‘rganishlar olib borish natijasida olingan xulosalarni reja asosida qog‘ozga tushirish, mavzuga oid yangiliklar haqida ma’lumotlar va takliflar bildirish, tayyorlangan Kurs loyihasi(ishi)ni fan o‘qituvchilari oldida himoya qilishdir. Kurs loyihasi yozish va uni himoya qilish, talabalarni fan yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlab, biror mavzu yuzasidan izlanish va ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam berib, mustaqil ta’lim sifatini oshirishni maqsad qiladi. Kurs loyihasi(ishi)ni bajarishda talabalarga rahbar o‘qituvchi biriktiriladi. Talaba kurs loyihasini bajarishda rahbar bilan kelishgan holda ish olib boradi va kurs loyihasini bajarish bo‘yicha savollarga birgalikda javob topadilar.

O‘quv rejada “Kartashunoslik” fanidan kurs loyihasi(ishi) yozishdan ko‘zda tutilgan maqsadlar:

- kartashunoslik fanidan mustaqil ta’lim olishni oshirish
- talabalarning kartashunoslik faning xuquqiy-me’yoriy xujjatlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlar bilan tanishish va ularni o‘rganib chiqish,
- kelgusidagi ilmiy ishlarga talabalarni tayyorlash.

## **1. Kurs loyiha (ishi)ning mavzusini tanlash**

Mavzuni to'g'ri tanlash ajariladigan ishning ko'p qismini osonlashtiradi va kurs loyihasi (ishi)ning muvofiqiyatli bajarilishi garovi hamdir. Odatada mavzular har o'quv yili boshida fan o'qituvchilari tomonidan kartashunoslikka doir bo'lgan, hozirgi kunda dolzarb va yechimini topish fan uchun muhim bo'lgan, mavzular tuziladi va universitetning o'quv-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga namuna sifatida oktyabr oylariga qadar taqdim etiladi. Talaba kafedra tomonidan "Kartashunoslik" faniga oid mavzular ichidan ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda tanlab olishlari mumkin. Talabaning istagiga ko'ra shakllantirilgan mavzulardan bo'lmagan mavzu tanlanishi mumkin.

### **Kurs loyihasi (ishi) mavzulari**

1. Umumgeografik va topografik kartalarni tuzishda GAT tizimidan foydalanish
2. Umumgeografik va topografik kartalarni tuzishda rel'efni kompyuter grafikasida ifodalash yo'llari
3. O'zbekistonda geografik kartografiya: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari
4. Umumgeografik, topografik, kosmofototopografik kartalar va planlar bir-biridan farqi va foydalanish yo'llari
5. Umumgeografik kartalarni loyihalash va tuzishda aero va kosmik ma'lumotlardan foydalanish
6. Atrof muhitni tadqiq etishda umumgeografik va topografik kartalardan foydalanish
7. Shaharlar va boshqa elementlar uchun
8. Topografik va umumgeografik kartalarni loyihalashda karta dasturlarini yozish
9. Tarixiy kartalar va atlaslar tuzishda umumgeografik va topografik kartalarning ahamiyati
10. Kompleks va mavzuli atlaslar tuzishda umumgeografik va topografik kartalarning ahamiyati
11. O'quv kartalari va atlaslarida umumgeografik va topografik kartalarning ahamiyati
12. Kartografik ishlab chiqarishni texnika va texnologiyasini rivojlanishi

13. Turistik kartalar va atlaslar yaratishda umumgeografik va topografik kartalarning ahamiyati
14. Topografik kartalar yaratishda yangi texnologiyalardan foydalanish
15. Dala sharoitida kartografik generalizatsiya qilishning asosiy usullari va xususiyatlari
16. Kamerial sharoitda umumgeografik kartalarni yaratish
17. Kamerial sharoitda topografik kartalarni yaratish
18. Umumgeografik kartalar tuzishda generalizatsiya
19. Topografik kartalar tuzishda generalizatsiya
20. Topografik kartalarni tuzishda bajariladigan muxarrirlik ishlari
21. Topografik kartalarni yangilash va takomillashtirish
22. Umumgeografik kartalarni yangilash va takomillashtirish
23. Obzor topografik kartalarni yaratish hususiyatlari
24. Mayda masshtabli umumgeografik kartalar tuzish va ulardan foydalanish
25. Umumgeografik kartalar asosida mavzuli kartalar yaratish
26. Kartalarni nashrga tayyorlash va nashr qilish ishlari
27. Topografik kartalarni tayyorlashning hozirgi zamon texnologiyasi
28. Belgilar usuli: ta'rifi, qo'llanilishi, belgilarning turlari va qo'llanilish texnikasi
29. Nuqtalar usuli: ta'rifi, qo'llanilishi, nuqtalar usulini ikkita ko'rinishi, qo'llanish texnikasi
30. Areallar usuli: ta'rifi, areallar va belgilar, qo'llanishi, areallar va sifatli fon, qo'llanish texnikasi
31. Miqdorli fon (rang) usuli: ta'rifi, qo'llanilishi, kartogramma va miqdorli fondan farki, qo'llanish texnikasi
32. Sifatli fon (rang) usuli: ta'rifi, qo'llanishi, kartogramma va miqdorli fondan farqi, qo'llanish texnikasi
33. Xarakatdagi belgilar usuli: ta'rifi, qo'llanishi, epyuralar, strelkalar, qo'llanish texnikasi
34. Chizikli belgilar usuli: ta'rifi, qo'llanishi, qo'llanish texnikasi
35. Kartogrammalar usuli: ta'rifi, qo'llanishi, kartogrammalarni kartodiagrammalar bilan ta'minlash , qo'llanish texnikasi

36. Kartodiagrammalar usuli: ta'rifi, qo'llanishi, turlari, qo'llanish texnikasi
37. Izolinyalar usuli: ta'rifi, qo'llanishi, izolinyalarni qo'llash uchun asosiy shartlar, qo'llanish texnikasi
38. Axoli xaritalarini loyixalash va tuzish(axoli xaritalarini predmeti, ob'ekti, xaritaga olish tajribasi, xaritalarni mavzusi va mazmuni)
39. Axolining soni , zichligi, jinsiy va yosh tuzilishni tavsiflovchi xaritalar
40. Asosiy demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi xaritalarni tuzish
41. Axolini etnografik xususiyatlarini tavsiflovchi xaritalarni yaratish
42. Axolini ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tavsiflovchi xaritalarni tuzish
43. Sanoat xaritalari
44. Qishloq xo'jaligi xaritalari
45. O'rmon xo'jaligi xaritalari
46. Transport xaritalari
47. Qurilish xaritalari
48. Tibbiy – geografik xaritalar
49. Sog'likni saqlash, maorif, fan va madaniyat xaritalari
50. Axoliga xizmat ko'rsatish va savdo xaritalari
51. Umumiy iqtisodiy xaritalar
52. Turistik xaritalar
53. Kadastr xaritalari
54. Dexqonchilik xaritalari
55. Chorvachilik xaritalari
56. O'zbekiston Respublikasining Yer fondi xaritasini loyihalash va tuzish
57. Qishloq xo'jalik korxonalari, dexqon va fermer xo'jaliklarining atlaslarini yaratish masalalari
58. Qishloq xo'jalik korxonalari, dexqon va fermer xo'jaliklarining tizim xaritalarini yaratish
59. Tuman va qishloq xo'jaligi atlaslarini yaratish masalari
60. Tuman qishloq xo'jalik xaritalarni tizimini yaratish masalalari
61. Tuman, umum qishloq xo'jalik xaritasining loyixasini ishlab chiqish
62. Viloyat (respublika) qishloq xo'jaligi atlasini loyixalash

63. Viloyat (respublika) qishloq xo‘jalik xaritalarini tizimini loyihalash va tuzish
64. Viloyat (respublika) umumqishloq xo‘jalik xaritasini loyixalashtirish
65. Geografik xaritalar tizimidagi qishloq xo‘jaligi xaritalari yoki viloyat, respublika geografik atlasidagi qishloq xo‘jalik xaritalarini ishlab chiqish
66. Xuquqbuzarliklar xaritasini loyixalash va tuzish
67. Axoli turmush darajasini tavsiflovchi xaritalarni loyixalash va tuzish
68. Mexnat resurslari va axolini bandligi xaritasini loyixalash va tuzish
69. Axoli uy – joy sharoitini tavsiflovchi xaritalarni loyixalash va tuzish.

### **Kurs loyihasi (ishi)ning rejasini tuzish va bajariladigan ishlarni nazorat qilish**

Kurs loyihasi(ishi)ning rejasi talaba tomonidan ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda tuzilishi kerak. Kurs ishning tayyorlangan rejasi kafedra mudiri yoki uning yordamchisi tomonidan tasdiqlatib olinishi lozim.

Kurs loyihasi(ishi)da belgilangan reja topshiriqlarini bajarilish muddatlari ilmiy rahbar tomonidan talabaga belgilab beriladi.

Talaba tasdiqlangan rejaga qat’iy amal qilishi, unda belgilangan vazifalarni (reja savollarini) bosqichma-bosqich hamda ilmiy rahbar nazoratida amalga oshirishi kerak.

Kafedra tomonidan Kurs loyihasi(ishi)ni yozishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

- ✓ kurs loyihasi mavzularini tasdiqlash va qayta ko‘rib chiqish;
- ✓ mavzuni tanlashida talabalarga kerakli ko‘rsatmalar va amaliy yordam berish;
- ✓ talabaga ilmiy rahbarlarni tayinlash va biriktirish;
- ✓ talabaning kurs loyihasi rejasini tasdiqlab berish va uning vazifasini bajarishini nazorat qilish;
- ✓ Kurs loyihasi(ishi)ni tayyorlashda talabaga uslubiy jihatdan yordam berish;
- ✓ talaba tomonidan bajarilgan ishning sifatiga taqriz berish hamda kurs loyihasi himoyasini tashkil qilishdan iborat bo‘ladi.
- ✓



## **2. Ilmiy rahbarning vazifalari**

Kafedra tomonidan birlashtirilgan ilmiy rahbar Kurs loyihasi(ishi)ni tayyorlashda talabaga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- ✓ kursloyihasi mavzusini tanlashda talabaga yordam berishi;
- ✓ ishning rejasini tuzishda talabaga ilmiy-uslubiy ko‘mak berishi va mavzuga oid adabiyotlarni tavsiya etishi;
- ✓ reja bo‘yicha vazifalarning bajarilishini muntazam ravishda tekshirishi, ilmiy-uslubiy maslahatlar va ko‘rsatmalar berishi;
- ✓ Kurs loyihasi(ishi)ga taqriz berishi.

## **4. Adabiyotlar bilan tanishish**

Kurs loyihasi(ishi)ni bajarishda talaba darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy-amaliy jurnallar, ommaviy ro‘znomalar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va internet saytlari bilan tanishish tavsiya qilinadi. Ular bilan tanishish uchun avvalambor Prezidentimizning shu mavzuga oid asarlarini, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini, Hukumat qarorlarini va boshqa me‘yoriy hujjatlarini alohida o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ma‘lumotlarni “Lex.uz” kabi maxsus saytdan foydalangan holda tanishish mumkin. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Geodeziya, kartografiya va kadastr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va maxsus me‘yoriy-xuquqiy hujjatlar to‘plamidan ham foydalanish mumkin. Shuningdek, boshqa ko‘pgina ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlar bilan Alisher Navoiy nomli davlat kutubxonasi va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti va boshqa kutubxonalarda hamda internet saytlarida tanishish mumkin. Talaba tanlagan mavzuga mos adabiyotlar bilan tanishib bo‘lgandan so‘ng, o‘rganishni boshlash kerak va ushbu mavzudagi adabiyotlarni yig‘ib bo‘lib, ulardan foydalanish tavsiya qilinadi. Adabiyotlardan foydalanilganda manbalardan olingan jummalarni yoki qilingan tahlillar natijalarini ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi. Bunda talaba kursloyihasi natijasida xavola berib o‘tish lozim. Xavolani arab raqamida belgilab ketma-ketligi bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar ro‘xatida berishi lozim. Adabiyotni ko‘rsatayotganda, adabiyotning nomi, nashr etilgan yili va joyi, kursloyihasi uchun olingan jumla joylashgan bet raqamlari keltirilishi kerak.

## 5. Kurs loyihasi(ishi)ni yozish tartibi va unni rasmiylashtirishning umumiy talablari

Kurs loyihasi(ishi)ni yozish uchun tanlangan mavzu asosida tahlillar olib boriladi. To‘plangan tahlillar natijasida Kurs loyihasi(ishi)shning tarkibi tuziladi.

Kurs loyihasi(ishi)ning tarkibi

- ✓ reja,
- ✓ kirish,
- ✓ asosiy qism,
- ✓ xulosa,
- ✓ foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati,
- ✓ ilovalardan iborat bo‘ladi.

**Kirish qismida** mavzuning dolzarbligi, o‘rganilish sabablari, ishning maqsadi shakllantiriladi. Mavzuning ob‘ekti va predmeti, bajariladigan vazifalar va qilingan ishning butun muohiyati qisqa yoritiladi. Kirish qismi uch yoki besh varoqdan oshmasligi lozim.

**Asosiy qism** o‘z ichiga uchta yoki to‘rttagacha paragraflar yoki boblarni o‘z ichiga olishi mumkin. Asosiy qism Kurs loyihasi(ishi)ning 80-85 foizini tashkil etadi, mavzuning nazariy va metodik masallalar ketma-ket batafsil yoritiladi, bunda har bir o‘rganilgan savollar boblarga ajaratilib ko‘rsatiladi, boblar bir nechta bo‘limlar bilan tushuntirib beriladi. Boblar nomidan kelib chiqqan holda bo‘limlarga nom beriladi, ya’ni bob va bo‘limlar mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lishi shart. Bo‘limlar soni ikkita yoki uchtadan oshmasligi lozim, ular bir birini ketma-ketlik jihatdan va mazmunan to‘ldirishi lozim. Misol uchun **“Kartografiyaning geoaxborot tizimlari bilan bog‘liqligi”** mavzusi bo‘yicha quydagicha reja tuzish mumkin.

## **Kirish**

### **Asosiy qism**

#### **1. Kartashunoslik fani haqida umumiy ma'lumotlar**

1.1. Kartashunoslik fani tarixi

1.2. Kartashunoslik fanining yo'nalishlari

1.3. Kartashunoslik fanining rivojlanish istiqbollari

#### **2. Geoaxborot tizimlarining umumiy tarifi**

2.1. Geoaxborot so'zining ma'nosi va ishlatilishi

2.2. Geoaxborot tizimlarining rivojlanish tarixi

2.3. Geoaxborot tizimlarining sohalarda ishlatilishi

#### **3. Geoaxborot tizimlari va kartashunoslik fanining bog'liqligi**

3.1. Geoaxborot tizimlarining kartografiyada ishlatilishi

3.2. Geoaxborot tizimlari yordamida xaritalar yaratish


3.3. Yaratilgan xaritalarni tahrirlash

**Xulosa qismida** barcha olingan natijalar jamlanib, tahlil qilinib mavzu yuzasida takliflar berish maqsadga muvofiq. Xulosa 3 betdan kam 6 betdan ko'p bo'lmasligi lozim.

Kursloyihasi hajmi 30-40 betdan kam yoki ko'p bo'lmasligi lozim va ta'lim standartlarida talab etilganidek, tartibli rasmiylashtirilgan va xatosiz, aniq va tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak.

Kursloyihasi qo'l yozma tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Kursloyihasi A4 o'lchamdagi oq qog'ozda, Times New Roman shriftida, 14 o'lchamida yozish tavsiya qilinadi.

Chap-3sm, past-2sm, yuqori-2sm, o'ng-1sm




Kurs loyihasi(ishi)ni yozishda varoqning chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, unгда 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi, Kurs loyihasi(ishi)ning barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi bet titul varag'i hisoblanib, unga raqam qo'yilmaydi, keyingi betga "2" raqami qo'yiladi va hokazo. Tartib raqami betning pastki tomonining o'rtasiga qo'yiladi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ichidagi

savollarning sarlavhalarini yozishda bo‘g‘in ko‘chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo‘yilmaydi. Sarlavhani tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo‘yiladi va raqamdan so‘ng nuqta qo‘yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bitta savol "1.1.", ikkita savol bo‘lsa "1.2." shaklda yoziladi.

### **1.1. Kartashunoslik fani tarixi**

Kartashunoslik fani xaritalar tarixi va tuzish qoidalarini o‘rganadigan fan bo‘lib, bir nechta yo‘nalishlardan iboratdir.



1.1.-rasm. GAT dan foydalanib tuzilgan xaritaning qatlamlari ko‘rsatilgan

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshlanishida raqam qo‘yilmaydi. Kurs loyihasi(ishi)ning har bir qismi yangi betdan boshlanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda varaqni yuqori qismining o‘rtasida yozish tavsiya etiladi.

Barcha (grafik, chizma, diagramma, va xarita)lar, "rasm" so‘zi va bo‘lim bo‘yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan chizma va xaritalar bundan mustasno. Xarita raqami bo‘lim va xarita raqamidan iborat bo‘lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuvdan tepaga yoziladi.

Raqamli materiallar jadval ko‘rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Jadvalni rasmiylashtirish namunada ko‘rsatilgan. Har bir jadval sarlavhaga ega bo‘lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavhani ostiga chizilmaydi.

1-jadval

#### Kartografiyaning rivojlanish tarixi bosqichlari

Kartografiyaning paydo bo‘lishi	Kartografiyaning fan sifatida shakllanishi	Krtografiya faning rivojlanishi
1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich

Jadval sarlavhasi jadval yuqorisida o‘rtada yozilishi tavsiya etiladi. Jadval grafalarining sarlavhalari bosh harflar bilan, sarlavxachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tashkil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo‘lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak. Jadval bosh qismini diogonal bo‘yicha bo‘lish mumkin emas.

Ko‘plab grafalarga era bo‘lgan jadvalni qismlarga bo‘lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Havolalarni keltirish tartiblari:

- hujjat va ta’rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirganda;
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo‘yicha iqtibos keltirganda;
- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirganda;
- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirganda;
- statistik ma’lumotlar va to‘plamlardan iqtibos keltirganda;
- me’yoriy-huquqiy xujjatlardan iqtibos keltirganda;
- bir betda iloji boricha 3 tadan ko‘p iqtibos keltirish tavsiya qilinmaydi;
- va boshqa holatlarda.

Har bir ilova yangi betning o‘ng yuqori burchagida "Ilova" so‘zi bilan boshlanadi. Agar Kurs loyihasi(ishi)da bittadan ko‘p ilova bo‘lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, "1-ilova", "2-ilova" va x.

Ilovalarni alohida rasmiylashtirganda, titul varag'ida kursloyihasi mavzusining nomi ostida katta harflar bilan "ilovalar" so'zi yoziladi.

## **6. Kurs loyihasi(ishi)ni himoya qilish jarayoni**

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va Kurs loyihasi(ishi)ni topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mudiri tomonidan o'rantiqan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo'lgan Kurs loyihasi(ishi)ni kafedra kotibasiga topshiradi. Kotiba ushbu Kurs loyihasi(ishi)ni ro'yxatga olish kitobida ro'yxatdan o'tkazib, kursloyihasi titul varag'iga ro'yxatdan o'tkazilgan sana va ro'yxat tartib raqamini yozadi. So'ng ilmiy rahbarga topshiradi. Ilmiy rahbar Kurs loyihasi(ishi)ni ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab bir hafta ichida, ilmiy rahbar kurs loyihasi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedraga taqdim etadi. Ilmiy rahbar tomonidan taqdim qilingan taqrizda talabanning faolligi, mavuzning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklari, keltirilgan malumotlarni tahlili, chiqarilgan xulosa va takliflarning asosligi va Kurs loyihasi(ishi)ning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Shu bilan birga, xato va kamchiliklari ham ko'rsatiladi. Natijada, taqriz oxirida xulosa qilinadi, ya'ni kursloyihasi himoya qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ko'rsatib o'tiladi.

Kurs loyihasi(ishi)da qo'pol bo'lmagan xato kamchiliklar bo'lsa, himoyaga tavsiya etilgan bo'lsa, talaba Kurs loyihasi(ishi)da ko'rsatilgan xato kamchiliklarni asoslash yoki to'g'rilash uchun Kurs loyihasi(ishi) himoyasigacha tayyorlanish kerak. Agarda Kurs loyihasi(ishi)da xato kamchiliklar ko'p bo'lsa, ularni bartaraf etgandan so'ng, himoyaga tavsiya etishishi ko'rsatilgan bo'lsa, u xolda xato kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish taqriz yoziladi.

Agarda talaba sababsiz ravishda Kurs loyihasi(ishi)ni o'z vaktida topshirmasa, kamchiliklar to'liq bartaraf etilmasa u holda ilmiy rahbar kursloyihasi himoyaga qo'yilmaydi deb yozib xulosa beradi.

Kotiba taqriz yozilgan Kurs loyihasi(ishi)ni topshirilgan kun bilan ro‘yxatdan o‘tkazib quyish kerak. Kurs loyihasi(ishi)larini ro‘yxatga olish kitobida har bir guruhlarni alohida betdarasimiylashtirish tavsiya etiladi.



**Toshkent davlat texika univestieti**  
**“Geologiya-qidiruv va Kon metallurgiya” fakulteti,**  
**6-20-guruhi talabasi Sobirova D.**

**"O‘zbekistonda kartashunoslik fanning rivojlanish muammolari" mavzusida**  
**yozilgan Kurs loyihasi(ishi)ga**

**TAQRIZ**

Ushbu kursloyhasikirish, uch savol, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib,

1. Kartashunoslik fani haqida
2. Kartashunoslik fanning rivojlanish bosqichlari
3. O‘zbekistonda kartografiyaning rivojlanish muammolari

Kursloyhasi40 varaq hajmida yozilgan, unda 3 ta chizma, ma’lumotlar 3 ta jadvallarda keltirilgan, ma’lumotlarning keng tahlili amalga oshirilgan va 50 nomdagi adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan,

Kurs loyihasi(ishi)da quyidagi kamchiliklar mavjud:

- 20,25 betlarda keltirilgan ma’lumotlar manbaasi ko‘rsatilmagan;
- beshinchi savolda keltirilgan jadvalda o‘lchov birligi (ming so‘m hisobida)

ko‘rsatilmagan.

Ushbu kamchiliklar Kurs loyihasi(ishi)ning mazmuniga ta’sir etmaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni kelugsi tadqiqot ishlarida takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi deb o‘ylayman va ushbu Kurs loyihasi(ishi)ni himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Ilmiy rahbar:**

**Nizomova R.R.**

Kurs loyihasi(ishi)ni himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilab beriladi. Kursloyihasihimoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a'zodan iborat bo'ladi. Kurs loyihasi(ishi)ni himoyasida albatta komissiya tarkibidan kamida 3 ta azosi bo'lishi talab etiladi.

Har bir talaba uchun kursloyihasihimoyasi 20-25 minut (10-15 minutgacha talaba ma'ruzasi, 5-10 minutgacha savol-javob) davom etadi. Talab ma'ruzasida qisqacha mavzu to'g'risida tushuncha berishi, ya'ni mavzuning dolzarbligi, muammosi, xulosa va taklif haqida to'xtalishi kerak. Shuningdek, taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar haqida to'xtalish kerak.

Himoyadan so'ng, komissiya a'zolari yopiq majlis o'tkazib, talabalarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a'zolari quydagicha qarorini qabul qilishi mumkin:

- Kurs loyihasi(ishi)ni himoya qilganligini bildiruvchi baho qo'yilishi mumkin;
- himoyaga kiritilmagan bo'lishi mumkin;
- himoyaga kelmadi bo'lishi mumkin;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo'lishi mumkin;
- qayta himoya qilish uchun muddat berishi mumkin;
- boshqa mavzuda qayta ishlab himoya qilish tavsiya qilinishi mumkin.

Uzrli sabab bilan Kurs loyihasi(ishi)ni belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsati bilan, komissiyasining loyihasiyakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Geologiya-qidiruv va kon metallurgiya fakulteti

“Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo‘nalishi  
Kartashunoslik fanidan

UMUMGEOGRAFIK VA TOPOGRAFIK  
KARTALARNI TUZISHDA GAT  
TIZIMIDAN FOYDALANISH

mavzusidagi

Kurs loyiha (ishi)

Toshkent-2022

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. T.Mirzaliev, E.Yu.Safarov, A.Egamberdiev, J.S.Qoraboev.Kartashunoslik Toshkent-2012
2. E.Yu.Safarov, S.A.Avezov, O.R.Allanazarov, R.Q.Oymatov. Kartashunoslik Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2012

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.







